

5/2023,
sentabr-
oktabr
(№ 00067)



GLOBAL OZIQ-OVQAT TANQISLIGI VA MILLIY OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI: BOJXONA ASPEKTIDA XAVF OMILI SIFATIDA

Quvatova Zaxro Orifjonovna

Bojxona qo'mitasining Bojxona institutining o'qituvchisi Toshkent, O'zbekiston.

zahrokuvatova@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-1872-6473>

DOI: https://doi.org/10.55439/EIT/vol11_iss5/a30

Annotatsiya

Maqolada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati, ko'rsatkichlari, tarkibiy qismlari va mezonlari to'g'risida ma'lumotlar yoritilgan. Shuningdek, Birlashgan millatlar tashkilotini oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan xalqaro dasturlari, tadqiqotchilar va olimlarning qarashlari hamda fikrlari bayon etilgan. Mazkur soha muammolarini tadqiqoti doirasida bojxona organlarining faoliyatiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, yurtimizga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash bo'yicha hududiy bojxona boshqarmalari tomonidan aniqlangan huquqbuzarliklar tahlili amalga oshirilgan. Tadqiqot hulosasida oziq-ovqat taqchilligining oldini olish va umuman oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: oziq-ovqat mahsulotlari; oziq-ovqat xavfsizligi, BMT, FAO, bojxona, eksport, import va huquqbuzarliklar.

ГЛОБАЛЬНЫЙ ДЕФИЦИТ ПРОДОВОЛЬСТВИЯ И НАЦИОНАЛЬНАЯ ПРОДОВОЛЬСТВЕННАЯ БЕЗОПАСНОСТЬ: КАК ФАКТОР РИСКА В ТАМОЖЕННОМ АСПЕКТЕ

Куватова Захро

Преподаватель Таможенного института Таможенного комитета, Ташкент, Узбекистан.

Аннотация

В статье представлена информация о значении, показателях, компонентах и критериях обеспечения безопасности пищевой продукции. Также, описаны международные программы ООН, направленные на обеспечение безопасности пищевых продуктов, взгляды и мнения исследователей и специалистов данного направления. В рамках изучения проблем данной отрасли особое внимание было уделено деятельности таможенных органов, а также проведен анализ выявленных региональными таможенными управлениями нарушений по обеспечению безопасности пищевых продуктов, поступающих в нашу страну. В заключении исследования были сформулированы научные предложения и практические рекомендации по предотвращению продовольственного дефицита и обеспечению её безопасности в целом.

Ключевые слова: продукты питания, продовольственная безопасность, ООН, FAO, таможня, экспорт, импорт и правонарушение.

GLOBAL FOOD SHORTAGE AND NATIONAL FOOD SECURITY: AS A RISK FACTOR IN CUSTOMS ASPECT

Kuvatova Zahro

Teacher of the Customs Institute of the Customs Committee, Tashkent, Uzbekistan.

Abstract

The article provides information on the importance, indicators, components and criteria of ensuring food safety. Also, international programs of the United Nations aimed at ensuring food safety, views and opinions of researchers and scientists are described. As part of the study of the problems of this sector, special attention was paid to the activities of the customs authorities, and the analysis of the violations detected by the regional customs administrations on ensuring the safety of food products entering our country was carried out. At the end of the study, scientific proposals and practical recommendations were formulated to prevent food shortages and ensure food safety in general.

Keywords: food, food security, UN, FAO, customs, export, import and offenses.

Kirish

Bugungi kunda aholimiz soni o'sib borayotgani, jahondagi nobarqaror vaziyat, logistikadagi uzilishlar oziq-ovqatni ko'paytirish bo'yicha oldimizga yanada katta vazifalarni qo'yimoqda [1]. Jahondagi keskin siyosiy o'zgarishlar, aksar davlatlardagi yuz berayotgan iqtisodiy beqarorliklar global oziq-ovqat xavfsizligiga bevosita xavf solmoqda.

Oziq-ovqat xavfsizligi keng qamrovli ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va ekologik omillarga bog'liq bo'lib, mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Oziq-ovqat xavfsizligining to'rt tarkibiy qismlari (oziq-ovqatning mavjudligi, uni xarid qilish qobiliyati, undan foydalanish va uning barqarorligi) bo'yicha oziq-ovqat xavfsizligining davlat siyosati ishlab chiqiladi va amalga oshiriladi.

Birlashgan millatlar tashkilotining (keyingi o'rinlarda – BMT) ma'lumotlariga ko'ra, hozirgi kunda sayyoramizda 7,6 milliarddan ortiq odam yashamoqda va bu ko'rsatkich 2050-yilga borib 9,3 milliardga yetishi prognoz qilinmoqda [2]. Bu holat kelgusi istiqbolda oziq-ovqat, ayniqsa, go'sht mahsulotlarining tanqisligini keltirib chiqarishi tabiiydir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

BMT Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (keyingi o'rinlarda – FAO)ning dunyoda oziq-ovqat xavfsizligi va ovqatlanish holati bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilda dunyo ocharchilik, oziq-ovqat xavfsizligi va to'yib ovqatlanmaslikning barcha ko'rinishlariga barham berish maqsadlariga erishishdan uzoqlashayotgani to'g'risidagi ma'lumotlar tasdiqlandi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun belgilangan muddatga (2030-yil) oz fursat qolganiga qaramasdan, aksincha, insoniyat yildan-yilga barqaror rivojlanish maqsadiga erishish uchun ko'plab vazifalarni hal qilishdan uzoqlashmoqda [3].

Rossiyalik olim A.Yu.Beluginning fikriga ko'ra, aholini zarur oziq-ovqat mahsulotlari bilan barqaror ta'minlash davlatning eng muhim vazifalardan biridir. Mehnat taqsimoti, texnologiya rivojlanishi, aholini umumiy turmush darajasi, milliy xususiyatlardan kelib chiqib turli davrlarda bu vazifani tushunish va turli mamlakatlarda o'zini sharoitlaridan kelib chiqib uni hal qilishga yondashuvlar o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan [4].

N.V.Tarasovanning fikricha, mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi ijtimoiy, iqtisodiy va ekologik siyosatni mahsuli bo'lib milliy xavfsizlikning siyosiy, harbiy va demografik tarkibiy qismlariga katta ta'sir ko'rsatadi [5].

A.I.Altuxovning fikricha, davlatni ayrim turdagi oziq-ovqatga bo'lgan yuqori va asossiz importga qaramligi iqtisodiy xavfsizlikni sezilarli darajada pasaytiradi va uning milliy

manfaatlarini sezilarli darajada buzadi, chunki qishloq xo'jaligi mahsulotlari, xom ashyo va oziq-ovqat mahsulotlarini keng miqyosda chet eldan sotib olish qo'shimcha ravishda valyuta resurslariga bosimni oshiradi [6].

A.N.Anishenko, T.V.Uskova, R.Y.Semenkov va A.N.Chekvinskiylarning fikricha, jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida hududning oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash tobora muhim ahamiyat kasb etib, global xarakterdagi asosiy muammolardan biriga aylanib bormoqda. Uni hal qilinishi butun dunyoda ham, har bir alohida mamlakatda ham barqarorlik va farovonlik muhitini yaratadi [7].

Mamlakatimiz olimlari X.P.Abulqosimov va N.I.Saidaxmedovalar tomonida mamlakat oziq-ovqat xavfsizligiga tashqi tahdidlar mamlakat tashqarisida, shu jumladan jahon va global miqyoslarda hamda qo'shni va hamkor mamlakatlarda yuzaga keladigan va unga xavf tug'diradigan ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar, omillar hamda voqeliklarda namoyon bo'ladi degan fikr ilgari surilgan [8].

B.E.Mamaraximov fikricha, mintaqada oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash asosan, o'zining qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va ichki sotish bozorlarini rivojlantirishga, qisman, chet ellardan oziq-ovqat mahsulotlarini import qilish hisobiga amalga oshirilishi maqsadga muvofiq [9].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot davomida statistik ma'lumotlarning sintezi va emperik tadqiqot usullaridan foydalanilgan. Shuningdek, tadqiqot metodologiyasi sifatida adabiyotlar qiyosiy tahlili, mantiqiy va tarkibiy tahlil qilish, guruhlashtirish va qiyosiy taqqoslash usullaridan foydalanildi. Olingan natijalar induksiya usuli orqali yakuniy xulosa sifatida chiqarildi.

Tahlil va natijalar

O'zbekiston o'zining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash bilan birga, meva-sabzavot va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish orqali xorijiy davlatlarning oziq-ovqat ta'minotiga munosib hissa qo'shayotgani xalqaro hamjamiyat tomonidan yuksak e'tirof etilmoqda. Jumladan, BMT "Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO)" ning 2015-yilda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasida "Ming yillik rivojlanish maqsadlari"ga erishgani uchun maxsus mukofotiga sazovor bo'lgan dunyodagi 14 ta davlatning biri sifatida mamlakatimizning e'tirof etilgani bu boradagi izchil siyosatimizga berilgan munosib baho bo'ldi.

FAO mutaxassislari fikriga ko'ra, oziq-ovqat xavfsizligi ko'rsatkichlari quyidagilardir [10]:

- barqarorlik;
- oziq-ovqat mavjudligi;
- oziq-ovqatga ega bo'la olish;
- foydalanish;

Aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlash mamlakat oziq-ovqat xavfsizligining bir qismi hisoblanadi. Aholini asosiy oziq-ovqat turlariga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, oziq-ovqat narxi va sifati uyg'unligini ta'minlash va oziq-ovqat xavfsizligi davlat tomonidan kafolatlanishi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy shartlaridan biridir.

Oziq-ovqat xavfsizligining tarkibiy qismlari quyidagilarga bo'linadi:

| | | |
|------|---|--|
| I. | Oziq-ovqat bilan jismoniy ta'minlanish: | <ul style="list-style-type: none"> - Qishloq xo'jaligi va qayta ishlash sanoatining samarali faoliyat yuritishi; - Oziq-ovqat mahsulotlari va xomashyo bozorining rivojlanishi; - Savdo tarmoqlarining rivojlanishi; - Yangi ish o'rinlarining yaratilishi; - Aholini ish bilan bandligini qo'llab-quvvatlashdir. |
| II. | Oziq-ovqat bilan iqtisodiy ta'minlanish: | <ul style="list-style-type: none"> - Aholi daromadlarining barqaror darajasini qo'llab-quvvatlash; - Mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash; - Narx darajasini tartibga solish; - Yer uchastkalarini olish uchun sharoit yaratish; - Budget to'lovlarning o'sishi. |
| III. | Xavfsiz ovqatlanish: | <ul style="list-style-type: none"> - Mahsulot va xomashyo sifatini nazorat qilish; - Sifatni boshqarish tizimini yaratish va sertifikatlash; - Aholi salomatligini yaxshilash; - Sog'lom turmush tarzini shakllantirish. |

1-rasm. Oziq-ovqat xavfsizligining tarkibiy qismlari*

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Oziq-ovqat xavfsizligi mezonlari:

- Yuqori darajada ta'minlangan oziq-ovqat xavfsizligi;
- Barqaror oziq-ovqat xavfsizligi;
- Oziq-ovqat xavfsizligi;
- Oziq-ovqat xavfsizligiga tahdid;
- Oziq-ovqat ta'minotini halokatli bo'sag'asi;
- Oziq-ovqat ta'minotida halokat.

Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligining tarkibiy qismlarini amalga oshirish nuqtayi nazardan ham keyingi yillarda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalasiga eng dolzarb vazifa sifatida qarala boshlandi. Ayni paytda yurtimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash borasida ham tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi bojxona organlari ham, o'z vakolatlari doirasida yurtimizga kirib kelayotgan oziq-ovqat mahsulotlarini xavfsizligini ta'minlash, ichki bozorni sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to'ldirish, aholining xarid imkoniyatlarini mustahkamlash borasida faoliyat yuritadi. Noqonuniy yo'l bilan kirib kelayotgan tovarlarni to'xtatib qolish va ularni oldini olish kabi holatlar bojxona organlarining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

2020-2023-yillar kesimida hududiy bojxona boshqarmalari, hamda "Toshkent-AERO" ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi, tomonidan aniqlangan oziq-ovqat mahsulotlarini noqonuniy muomalasining tahlilidan ko'rinib turibdiki, 2020-yil bilan solishtirilganda, 2022-yilda huquqbuzarliklar soni oshishi kuzatilgan (1-jadval).

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, ohirgi ikki yilda jahonda oziq-ovqat inflyatsiyasi yiliga 15-20 foizdan pasaymayotgani, o'simlik yog'i, sut va go'shtning jahon narxi so'nggi 30 yildagi, don mahsulotlari va shakar esa so'nggi 10 yildagi eng yuqori darajaga ko'tarilgani qayd etildi.

Eksport-importda logistika, o'g'it va yoqilg'i xarajatlari oshib ketgani ham oziq-ovqat narxlariga o'z ta'sirini ko'rsatayapti. Tahlillarga ko'ra, bu holat 2023-yilda ham, kelgusi yillarda ham saqlanib qoladi.

1-jadval

2020-2023-yillarda oziq-ovqat mahsulotlari bo'yicha aniqlangan huquqbuzarliklar to'g'risida ma'lumot*

| Hududiy bojxona boshqarmalari nomi | 2020-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2023-yil (yanvar-mart) |
|------------------------------------|------------|------------|------------|------------------------|
| “Toshkent-AERO” IBK | 26 | 60 | 46 | 8 |
| Andijon viloyati | 48 | 23 | 225 | 86 |
| Buxoro viloyati | 18 | 16 | 11 | 10 |
| Jizzax viloyati | 2 | 0 | 8 | 3 |
| Qashqadaryo viloyati | 5 | 5 | 6 | 1 |
| Navoiy viloyati | 6 | 31 | 6 | 4 |
| Namangan viloyati | 124 | 135 | 61 | 3 |
| Samarqand viloyati | 17 | 10 | 10 | 6 |
| Surxondaryo viloyati | 57 | 54 | 59 | 41 |
| Sirdaryo viloyati | 58 | 15 | 19 | 19 |
| Toshkent shahri | 39 | 32 | 27 | 6 |
| Toshkent viloyati | 58 | 53 | 66 | 57 |
| Farg'ona viloyati | 61 | 57 | 41 | 16 |
| Xorazm viloyati | 3 | 7 | 51 | 6 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 80 | 22 | 24 | 15 |
| Jami | 602 | 520 | 660 | 281 |

Manba: * Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shu jumladan, yurtimizda aholini alohida turdagi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlarini kafolatli ta'minlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-maydagi “Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta'sirchanligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida”gi PF-145-sonli Farmoniga muvofiq, 2022-yil 1-iyundan boshlab O'zbekiston Respublikasi hududidan quyidagi oziq-ovqat mahsulotlarini olib chiqish (eksport qilish) vaqtinchalik taqiqlandi (2-jadval):

2-jadval

Eksporti vaqtinchalik taqiqlangan oziq-ovqat mahsulotlari

| Tovar nomi | Tovarning TIF TN kodi |
|--|-----------------------|
| Kungaboqar yog'i | 1512 11 910 |
| Paxta yog'i | 1512 21 |
| Makkajo'xori yog'i | 1515 21 |
| Soya yog'i | 1507 10 |
| Kungaboqar urug'lari | 1206 00 |
| Boshqa yog'li o'simliklarining urug'lari va mevalari | 1207 |

Manba: * O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-maydagi “Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta'sirchanligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-145-sonli Farmoniga muvofiq muallif ishlanmasi.

Dunyoda oziq-ovqat narxlarining o'sishi, inflyatsiya xavf-xatarlari kelgusi yilda oziq-ovqat xavfsizligi eng dolzarb masala bo'lib qolishini yaqqol ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o'zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi.

Mazkur ustuvor yo'nalishning asosiy maqsadi – respublikaning barcha aholisi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan davlat siyosatini ishlab chiqish va uni samarali amalga oshirishdan iborat. Ustuvor yo'nalish aholini barqaror narxlardagi xavfsiz va sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga qaratilgan. Bu esa, O'zbekiston Respublikasining barqaror rivojlanish maqsadlariga (keyingi o'rinlarda – BRM), shu jumladan BMTning 2-BRM *“Ochlikka barham berish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, iste'molni yaxshilash va barqaror qishloq xo'jaligini targ'ib qilish”*da belgilangan maqsadlarga erishishga xizmat qiladi.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, butun dunyoda oziq-ovqat taqchilligi ortib borayotgan bir paytda O'zbekiston uchun ichki talabni qondirish, tashqi bozordan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan qaramlikni maksimal ravishda qisqartirish imkonini beradigan chora-tadbirlarni yanada samarali amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Shuningdek, hozirgi kunda dunyodagi murakkab siyosiy vaziyat, ishtirokchi davlatlarning o'zaro sanksiyalar qo'llashi sharoitida jahon bozorida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan tovarlar aylanmasi zanjiridagi ehtimoliy uzilishlardan unumli foydalangan holda, o'z milliy mahsulotlarimiz eksporti hajmini oshirish imkoniyatidan samarali foydalanib qolish maqsadga muvofiq, deb hisoblash mumkin. Bunday tadbirlar natijasida olinishi mumkin bo'lgan qo'shimcha daromadlar oziq-ovqat sohasida faoliyat yuritib, ma'lum sabablar bilan to'xtalishlar yuz berayotgan iqtisodiyot tarmoqlarini tiklash uchun sharoit yaratibgina qolmay, mamlakat iqtisodiy o'sishiga salmoqli hissa qo'shadi. Asosiy urg'uni import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga qaratish orqali esa, kelgusida mintaqada yuzaga kelishi mumkin bo'lgan shakar va o'simlik yog'i (*ma'lumot uchun: asosiy eksportyorlar Rossiya va Ukraina davlatlari*) [11] kabi mahsulotlarning ehtimoliy uzilishlaridan milliy oziq-ovqat xavfsizligini sug'urtalash imkonini yuzaga keltiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. 2023-yil 23-martdagi Prezident raisligida “Oziq-ovqat mahsulotlarini ko'paytirish, bahorgi ekin mavsumini samarali tashkil etish bo'yicha asosiy vazifalar” to'g'risidagi yig'ilish.

2. World population prospects 2022- Summary of Results, United Nations New York, 2022. URL: <https://www.un.org/en/>

3. Положение дел в области продовольственной безопасности и питания в мире – 2022. Переориентация политики в области продовольствия и сельского хозяйства в интересах повышения экономической доступности здорового питания. URL: <https://www.fao.org/documents/card/en/c/CC0639RU>

4. Белугин А.Ю. Эволюция понятия «продовольственная безопасность»: история, этапы, современное понимание. // Научные исследования экономического факультета. Электронный журнал, 2019. -№2-С. 122-143.

5. Тарасова Н.В. Институциональная среда продовольственной безопасности страны. // Вестник НГИЭИ, 2015.-№3-С. 86-92.
6. Алтухов А.И. Продовольственная безопасность страны: проблемы и возможные пути их решения.// Экономика региона, 2008.-№2-С. 33-48.
7. Ускова Т.В., Селименков Р.Ю., Анищенко А.Н., Чекавинский А.Н. Продовольственная безопасность региона.// М.: ИСЭРТ РАН, 2014. – С.140.
8. Abulqosimov X.P. va Saidaxmedova N.I. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning ustuvor yo'nalishlari.// Iqtisod va moliya, 2021. -№1- B. 14-22.
9. Mamaraximov B.E. O'zbekistonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va sanoatini rivojlantirish. //Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar, 2016.- №5- B. 4-6.
10. Jo'rayev T.I. Mamlakatda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash sohasidagi muammolar. URL:
 11. <https://tsue.scienceweb.uz/index.php/archive/article/download/596/403/>
 12. O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi ma'lumotlari asosida.
13. Иванич И. и Мартин У. Обеспечение продовольственной безопасности.// Финансы & развитие, 2008. -№4- С. 37-39.
14. Мусаев Д., Яхшиликов Е. и Юсупов Қ. Продовольственная безопасность в Узбекистане.// Программа Развития ООН в Узбекистане, 2010. С. 72.
15. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 31-maydagi “Iste'mol bozorlarida narxlar barqarorligini ta'minlashga va monopoliyaga qarshi choralarning ta'sirchanligini oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida” gi PF-145-sonli farmoni. URL:<https://lex.uz/ru/docs/6041630>
16. Karimov M.A. Oziq-ovqat sanoati korxonalarida boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini mazmuni va mohiyati. // Iqtisod va Moliya, 2020. -№3(135)- B.144-150.